



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING  
BUYRUG'I**

**Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi tizimidagi umumi o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Ixtirochilikka qadam" tanlovinini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, shuningdek, umumi o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari orasidan iqtidorli yoshlarni topish va ularni o'zлari qiziqqan sohalarga yo'naltirish, ilmiy-texnik ijodkorligi va ixtirochilagini rag'batlantirish hamda innovatsion faolligini oshirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida **buyuraman**:

1. Umumi o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida ta'lim, axborot texnologiyalari, yashil energiya, ekologiya, iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligi kabi yo'nalishlarda yangi mahsulot yoki xizmat turini yaratishni nazarda tutuvchi "Ixtirochilikka qadam" tanlovi (keyingi o'rnlarda - tanlov) tashkil etilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

tanlov Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (keyingi o'rnlarda - Agentlik) tomonidan o'tkaziladi.

tanlov to'rt bosqichda (maktab, tuman (shahar), hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlар va Toshkent shahar), respublika) tashkil etilib, har bir bosqich o'quv yilining har choragida o'tkaziladi.

tanloving birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlari hududlarda bir vaqtda hamda to'rtinchi bosqichi Toshkent shahrida o'tkaziladi.

3. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi tizimidagi umumi o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Ixtirochilikka qadam" tanlovinini tashkil etish va o'tkazish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi tizimidagi umumi o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Ixtirochilikka qadam" tanlovinini o'tkazish bo'yicha Respublika tashkiliy qo'mitasi tarkibi (keyingi o'rnlarda – Tashkiliy qo'mita) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tashkiliy qo'mita (A.Ubbiyev)ga:

ikki hafta muddatda tanloving baholash mezonlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

bir oy muddatda tanlovda ishtirok etadigan o'quvchilarning ro'yxatdan o'tishlari uchun maxsus onlayn platforma (veb-sayt) yaratish;

tanlovga o'quvchilarni keng jalb qilish maqsadida tanloving tashkil etilishi, o'tkazilishi bo'yicha ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

tanloving barcha bosqichlarini belgilangan tartibga asosan shaffof vaadolatli o'tkazilishini ta'minlash;

tanloving uchinchi va to'rtinchis bosqichlarida g'olib bo'lgan o'quvchilar hamda faol ishtirok etgan xodimlarni ma'naviy rag'batlantirish uchun diplom va faxriy yorliqlar tayyorlanishi va hududlarga yetkazilishini ta'minlash;

tanlov natijalarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga:

tanlovning birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlarini yuqori saviyada tashkil etilishi va o'tkazilishini nazorat qilish;

mahalliy hokimliklar hamda homiylarni jalb qilgan holda tanloving ikkinchi va uchinchi bosqichida g'olib bo'lgan loyihalar mualliflarini rag'batlantirish choralarini ko'rish;

tanloving uchinchi bosqichini o'tkazish uchun yetarli moddiy-texnik bazaga ega, ishtirokchilar kelishi qulay bo'lgan joyni belgilash;

tanloving shaffof, xolis va adolatli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida tanlov o'tkaziladigan joylarda kuzatuv kameralarini o'rnatish;

tanlov ishtirokchilarini tanlov o'tkaziladigan joyga kelib-ketishlarida harakat xavfsizligini ta'minlash;

tanloving uchinchi bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan loyiha mualliflarini to'rtinchis bosqichda ishtirok etishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

## 6. Agentlik (A.Ubbiyev)ga:

bir oy muddatda tanlovi tashkil etish va o'tkazishga talab etiladigan sarf-xarajatlar smetasini vazirlikka taqdim etish;

tanloving hududiy bosqichlarini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

tanloving respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimini tashkil etish va o'tkazish;

tanloving to'rtinchis bosqichida eng yuqori natija ko'rsatgan 10 ta loyiha ishini Oliy ta'lim va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash

jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilish vazifalari yuklatilsin.

7. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (X.Xusanov) mazkur tadbirni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar uchun talab etiladiga mablag‘lar bo‘yicha aniq hisob-kitoblarga asoslangan talabnomalarni vazirlikning 2025-yil uchun mo‘ljallangan markazlashgan tadbirlar rejasiga kiritish bo‘yicha joriy yilning 1-dekabriga qadar moliya-iqtisod departamentiga taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Axborot xizmati (D.Sobirova) tanlov jarayonlarini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borsin.

9. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalar, Agentlik hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,  
2024-yil “30”-avgust,  
285-son



X.Umarova

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va mакtab ta’limi  
vazirining  
2024-yil “30”-avgustdagи  
285-son buyrug‘iga  
1-ILOVA

**Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida “Ixtirochilikka qadam” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish**  
**TARTIBI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur tartib iste’dodli o‘quvchi-yoshlarni kashf qilish hamda ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Ixtirochilikka qadam” tanlovini (keyingi o‘rinlarda – tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - vazirlik) tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, jumladan, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan, davlat va nodavlat umumta’lim maktablari (keyingi o‘rinlarda - mакtab)ning 5-11 sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladi.

3. Tanlov har yili mакtab o‘quvchilari o‘rtasida ta’lim, axborot texnologiyalari, yashil energiya, ekologiya, iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish, sanoat ko‘rsatish yo‘nalishlarida o‘tkaziladi.

4. Tanlov vazirlik huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tomonidan tashkil etiladi.

5. Tanlov mакtab o‘quvchilari orasidan iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni o‘zлari qiziqqan sohalarga yo‘naltirish, ilmiy-texnik ijodkorligi va ixtirochiligini rag‘batlantirish, innovatsion faolligini oshirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida har yili o‘tkaziladi.

**2-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi**

6. Tanlov 4 bosqichda (mакtab, tuman (shahar), hududiy (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar), respublika) o‘tkaziladi.

7. Tanlovnинг har bosqichi o‘quv yilining har choragida tashkil etiladi.

8. Tanlovnинг har bir bosqichlarini tashkil etish va o‘tkazish uchun vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va mакtab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda — hududiy boshqarmalar), tuman (shahar) maktabgacha va mакtab ta’limi bo‘limlari, umumta’lim maktablarida tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda — tashkiliy qo‘mita) tuziladi.

9. Quyidagilar tashkiliy qo‘mitaning vazifalari hisoblanadi:

tanlov o‘tkaziladigan joyni belgilash va tasdiqlash;

hakamlar hay’ati tarkibini shakllantirish va tasdiqlash;

tanlovnинг tashkil etilishi, o‘tkazilishi va natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish;

tanlov ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritilishini muvofiqlashtirish;

tanlov natijalari va hakamlar hay'ati qarori asosida g'oliblarni keyingi bosqichda ishtirok etishi bo'yicha tavsiyani yuqori turuvchi tashkiliy qo'mitagaga taqdim etish.

10. Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan tanlovning baholash mezonlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

11. Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktabalarining o'quvchilari to'g'ridan-to'g'ri uchinchi bosqichda ishtirok etadilar.

### **3-bob. Hakamlar hay'ati**

12. Tashkiliy qo'mita tomonidan tanlovning barcha bosqichlari uchun 7-9 kishidan iborat hakamlar hay'ati tuziladi.

13. Hakamlar hay'ati tarkibiga ta'lim, axborot texnologiyalari, yashil energiya, ekologiya, iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligi yo'naliishlari bo'yicha maktablar, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot institutlarining, shuningdek, tegishli korxona va tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislari jalb qilinadi.

Hakamlar hay'ati a'zolari ochiq ovoz berish yo'li bilan hay'at raisini saylaydilar.

14. Hakamlar hay'ati:

tanlov ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida xolisona tekshiradi, baholaydi va g'oliblarni aniqlaydi;

natijalarni tanlov o'tkazilgan kuni e'lon qiladi;

o'tkazilgan tanlov natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi va uni tashkiliy qo'mitagaga taqdim etadi.

15. Hakamlar hay'ati a'zolari tanlov g'oliblarini xolisona aniqlash va belgilangan mezon asosida odilona baholashga shaxsan javobgar hisoblanadi.

### **4-bob. Tanlovni o'tkazish tartibi**

16. Tanlovda ishtirok etish istagida bo'lgan o'quvchilar maxsus onlayn platformada ro'yxatdan o'tishlari talab etiladi.

17. Tanlov ishtirokchilari individual yoki jamoa sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Bunda, jamoa a'zolarining soni 3 nafardan oshmasligi lozim.

18. Tanlovda har bir jamoa yoki individual ishtirokchi barcha bosqichlarda ro'yxatdan o'tgan loyihasi bo'yicha ishtirok etadi.

Bunda, ishtirokchilar tanlovning keyingi bosqichlarida loyihani rivojlantirib borishlari mumkin.

19. Tanlovning bir bosqichidan keyingi bosqichiga o'tish vaqtida loyihani kuchaytirish maqsadida jamoaga belgilangan miqdordan oshmagan holda qo'shimcha ishtirokchi jalb etish mumkin.

Bunda, jamoaning dastlabki a'zolari o'zgartirilmaydi.

20. Tanlov to‘rt bosqichda quyidagi muddatlarda o‘tkaziladi:
- birinchi bosqich — maktab miqyosida o‘quv yilining birinchi choragida;
  - ikkinchi bosqich — tuman (shahar) miqyosida o‘quv yilining ikkinchi choragida;
  - uchinchi bosqich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida o‘quv yilining uchinchi choragida;
  - to‘rtinchchi bosqich — respublika miqyosida o‘quv yilining to‘rtinchchi choragida.
21. Tanloving birinchi bosqichida har bir maktabdan eng yuqori natija ko‘rsatgan 1 ta loyiha maktab pedagogik kengashining (yoki nodavlat ta’lim tashkiloti rahbarining) qarori bilan ikkinchi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.
- Ikkinci bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etilgan loyiha ishlari haqidagi ma’lumotlar axborot tizimiga joylashtiriladi.
- Birinchi bosqichni o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar, jarayonningadolatli va shaffof o‘tkazilishini ta’minalashga maktab direktori mas’ul hisoblanadi.
22. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi birinchi bosqichning tashkil etilishini muvofiqlashtiradi hamdaadolatli va shaffof o‘tkazilishi bo‘yicha nazoratni amalga oshiradi.
23. Ikkinci bosqich tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari tomonidan birinchi bosqichda g‘olib bo‘lgan loyiha ishlari bo‘yicha o‘tkaziladi.
- Tanloving ikkinchi bosqichida eng yuqori natija ko‘rsatgan 3 ta loyiha ishi (1-, 2- va 3-o‘rinlar) bo‘yicha g‘oliblar aniqlanadi va hakamlar hay’ati qarori asosida tashkiliy qo‘mita tomonidan uchinchi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.
- Tashkiliy qo‘mita tavsiya etilgan loyiha ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni axborot tizimiga kiritadi va tasdiqlaydi.
24. Ikkinci bosqichni tashkil etishda ishtirokchilarini tanlov bo‘lib o‘tadigan manzilga xavfsiz kelib-ketishlariga tegishli maktab direktorlari shaxsan mas’ul hisoblanadi.
25. Hududiy boshqarmalar tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari tomonidan ikkinchi bosqichning o‘tkazilishini nazorat qiladi.
26. Uchinchi bosqich Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida hududiy boshqarmalar tomonidan o‘tkaziladi.
27. Tanloving uchinchi bosqichida ikkinchi bosqichda eng yuqori natija ko‘rsatgan 3 ta loyiha ishi (1-, 2- va 3-o‘rinlar) bo‘yicha g‘olib o‘quvchilar ishtirok etadi.
28. Uchinchi bosqichda eng yuqori natija ko‘rsatgan 3 ta loyiha ishi (1-, 2- va 3-o‘rinlar) bo‘yicha g‘oliblar aniqlanadi va hakamlar hay’ati qarori asosida tashkiliy qo‘mita tomonidan to‘rtinchchi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.
29. Ishtirokchilarining tanlov bo‘lib o‘tadigan manzilga xavfsiz kelib-ketishlarini ta’minalashga tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudirlari shaxsan mas’ul hisoblanadi.

30. Tanlovning to‘rtinchi bosqichi Agentlik tomonidan uchinchi bosqichda eng yuqori natija ko‘rsatgan 3 ta loyiha ishi (1-, 2- va 3-o‘rinlar) bo‘yicha g‘olib o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiladi.

31. To‘rtinchi bosqichda eng yuqori natija ko‘rsatgan 3 ta loyiha ishi (1-, 2- va 3-o‘rinlar) g‘olib hisoblanadi.

Tanlovda eng yuqori natija ko‘rsatgan 10 ta loyiha ishi Oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilinadi.

32. To‘rtinchi bosqichni tashkil etishda ishtirokchilarning respublika bosqichi bo‘lib o‘tadigan manzilga xavfsiz kelib-ketishlariga:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarma boshliqlari;

boshqa vazirlik va idoralarning tizimida bo‘lgan ta’lim tashkilotlarining rahbarlari;

nodavlat ta’lim tashkiloti rahbarlari;

## **5-bob. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

33. Tanlovning ikkinchi va uchinchi bosqichi g‘oliblari tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda homiyalar tomonidan rag‘batlantiriladi.

34. Tanlovning to‘rtinchi bosqich g‘oliblari vazirlik tomonidan taqdirlanadi.

## **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

35. Tanlov to‘g‘risidagi ma’lumotlar va uning natijalari tashkilotchilar va ularning tizimidagi tashkilotlar rasmiy veb-sayti va boshqa ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

36. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjalari belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi  
vazirining  
2024-yil “30”-avgustdagি  
285-son buyrug‘iga  
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi  
umumi o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida “Ixtirochilikka  
qadam” tanlovini o‘tkazish bo‘yicha Respublika tashkiliy qo‘mitasi  
TARKIBI**

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1	Ubbiyev Alisher Toirovich	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori, rais
2	Murodov Erkin Ergashevich	Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
3	Shermatov To‘raboy Yusupoyevich	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
4	Shakirova Sevara Boxodirovna	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
5	Mamadaliyev Abdukamol Abdurahimovich	O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi boshlig‘i, a’zo
6	Lavozimiga ko‘ra	Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, a’zo
7	Xujamov Inam Xikmatovich	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi Iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, kotib

**Izoh:** Tashkiliy qo‘mita a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimiga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarни bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.